

O'zlashtirish va ma'lumotlarni ekranga chiqarish operatori

1. Paskalda butun sonli o 'zgaruvchilar uchun boshlang'ich qiymat nimaga teng? 0 (nol)ga.
2. Paskalda char turidagi o 'zgaruvchilar uchun boshlang 'ich qiymat nimaga teng? '(probel) ga.
3. Paskalda string turidagi o 'zgaruvchilar uchun boshlang'ich qiymat nimaga teng? " bo'sh satrga.
4. Paskalda haqiqiy sonli o'zgaruvchilar uchun boshlang'ich qiymat nimaga teng? 0.0000000000e+00 ga.
5. Paskalda mantiqiy o 'zgaruvchilar uchun boshlang 'ich qiymat nimaga teng? FALSE ga (yolg'onga).
6. Paskalda o 'zlashtirish operatori qanday maqsadda qo 'llaniladi? O'zlashtirish operatori o'zgaruvchilarga qiymat berish uchun qo'llaniladi.
7. Paskalda o 'zlashtirish operatori qanday belgi orqali ifodalanadi? O'zlashtirish operatori := belgisi orqali ifodalanadi.
8. Paskalda o 'zlashtirish operatorining umumiy ko 'rinishi qanday? **o'zgaruvchi:= ifoda;**
9. Paskalda chiqarish operatorining vazifasi nima? Ma'lumotlarni kompyuter ekraniga chiqarish.
10. Chiqarish operatori qanday ko 'rinishga ega? Write(chiqarish ro'yxati) va WriteLn(chiqarish ro'yxati)
11. Chiqarish ro 'vxati nima? Chiqarish ro'yxati - o'zaro vergul bilan ajratilgan va ekranga chiqarilishi kerak bo'lgan ifoda, o'zgaruvchi yoki o'zgarmaslar ketma-ketligi.
12. Chiqarish ro 'yxatidagi qanday o 'zgarmaslar apostrof ichiga olib yoziladi? Chiqarish ro'yxatidagi o'zgarmaslar belgili yoki satrli bo'lsa, apostrof ichiga olinishi shart.
13. **Write** va **Writeln** operatorlarining farqi nimada? **Write** va **Writeln** operatorlarning farqi shundaki, **Write** operatori yordamida ma'lumotlar ekranga chiqarilgach yurgich ekranning shu satrida qoladi va ekranga chiqariladigan keyingi ma'lumotlar shu satrga yurgich turgan joydan boshlab chiqariladi, **Writeln** operatorida esa ma'lumotlar ekranga chiqarilgach yurgich keyingi satr boshiga o'tadi.
14. Paskalda ma 'lumotlarni chiqarish formatini ko 'rsatish uchun qanday belgidan foydalaniladi? ":" (ikki nuqta).
15. **Writeln(a:10:3)** ni tushunturing. **Writeln(a:10:3)**; operatori a ning qiymatini chiqarish uchun 10 ta xona ajratadi, shundan bitta xonasi nuqta va 3 ta xonasi sonning kasr qismiga ajratiladi.
16. Chiqarish formatida ajratilgan joy o 'zgaruvchi qiyma fining "uzunligi "dan kichik bo 'lsa, ekranda ma 'lumot qanday ko 'rinishda chiqadi? Chiqarish formati bekor qilinadi va o'zgaruvchining qiymati to'laligicha ekranga chiqariladi. Faqatgina haqiqiy son kasr qismining formati bekor qilinmaydi.
17. Haqiqiy sonni ko 'rsatishda agar chiqarish formati bekor qilinmasa, son ekranda qanday ko 'rinishda chiqariladi? Haqiqiy sonni ko'rsatishda formati bekor qilinmasa, u ekranga eksponensial ko'rinishda chiqariladi.
18. Paskalda **ALT+F4** klavishining vazifasi nima? Paskalda ekrandagi natijani ko'rish uchun **ALT+F4** klavishlar juftligi bosiladi.